# Nizoli oila tushunchasi, uning mezonlari va nizoli oila turlari

Madinabonu Mirzo qizi Nabiyeva
j.s.ostonov@gmail.com
Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti

**Annotatsiya:** Oilaviy nizolar muammosining oʻrganilishi jarayonida, asosan, er-xotin (ota-ona) oʻrtasidagi munosa-batlarni nazarda tutish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki oila muhiti muvozanatini ota-ona saqlab turadi. Oila borasidagi ilmiy izlanishlardan yana shu narsa ma’lumki, oilaviy nizolarning asosiy qismi er-xotin oʻrtasidagi nizolardan tashkil topadi.

**Kalit so’zlar:** Oila, nizo, FXDYo, ota-ona, qaynona, kelin, er-xotin

# The concept of conflict family, its criteria and types of conflict family

Madinabonu Mirzo qizi Nabiyeva
j.s.ostonov@gmail.com
Bukhara institute of psikhology and foreign languages

**Abstract:** In the study of the problem of family conflicts, it is advisable to consider the relationship between the spouses (parents). Because the parent maintains the balance of the family environment. Research on the family also shows that the majority of family disputes are between couples.

**Keywords:** Family, conflict, FXDYo, parents, mother-in-law, daughter-in-law, couple

Oilada yuzaga kelish ehtimoli boʻlgan nizo-janjallarning sabablarini aniqlash va ularning oldini olish masalalarini ijobiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularning kimlar oʻrtasida yuz berayotganligini farqlab olish maqsadga muvofiqdir. Oilaviy nizolarda kimlar ishtirok etishiga koʻra, ularni quyidagicha asosiy turlarga ajratish mumkin:

- er-xotin oʻrtasidagi nizolar;
- qaynona-kelin oʻrtasidagi nizolar;
- qaynona-kuyov oʻrtasidagi nizolar;
- ovsinlar oʻrtasidagi nizolar;
- ota-onalar va farzandlar oʻrtasidagi nizolar.


CC BY

Albatta, bu ro‘yxatni yanada davom ettiraverish mumkin, lekin hozircha shu yuqorida keltirilganlar bilangina kifoyalanib, oilaviy hayotda ro‘y berish ehtimoli nisbatan yuqori bo‘lgan nizolarning eng muhimi bo‘lmish er-xo-tin o‘rtasidagi nizolarning ayrim xususiyatlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o‘rtasidagi nizolardir. Xo‘sh, eng ezgu niyatlar bilan bir-birlarini sevib oila qurgan yoshlar nega oila qurishgandan keyin ularning o‘zaro munosabatlarida ni-zo-janjallar ro‘y beradi? Ular nima uchun urushadilar? Umuman, er-xotinlik hayotida nizolarsiz, urush-janjal-larsiz ham yashasa bo‘ladimi? Bu kabi savollarni yana ko‘p davom ettirish mumkin. Xalqimizda bir gap bor: oshsiz uy bo‘lishi mumkin, le-kin nizosiz uy bo‘lmaydi. Faqat nizoning nizodan farqi bor. Bu haqda quyida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Haqiqatdan ham, ilk bolalikdanoq ko‘plab ertaklar eshitib, keyinchalik o‘zlari ham ularni turli kitoblardan o‘qib o‘sgan yoshlar o‘zlarining bo‘lajak oilaviy hayotlarini adekvat tasavvur eta olishlari mushkul. Chunki ertaklarda ham, kinofilmlarda ham qahramonlar bir-bir-lariga yetishgunlariga qadar ne-ne mashaqqatlarni, zahmatlarni boshlaridan kechirib, bu yo‘lda duch kelgan qora kuchlarni yengib, oxir-oqibatda visolga erishadilar, elu yurtga “qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y berib, murod-maqsadlariga erishadilar”. Deyarli barcha ertaklar, filmlar, ayniqsa, bizning yoshlarimiz, qizlarimiz sevib tomosha qiladigan hind filmlari, aksariyat hollarda shu tariqa yakun topadi. Bunga sizlar ham ko‘p martalab guvoh bo‘lgansizlar. Bundan tashqari aksariyat muvaffaqiyatli oilalarda tar-biya topgan yigit-qizlar o‘z ota-onasi oilasini, ularning turmush tarzini, bir-birlariga nisbatan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarini va qator shu kabilarni o‘zlarining bo‘lajak oilaviy hayotlari uchun ideal deb olishadi hamda ular ham oila qurishganlaridan so‘ng o‘g‘il bolalar xuddi o‘z otasi-dek va qizlarimiz o‘z onalaridek “ota”, ”ona”, “er”, “xotin” bo‘lishni orzu qilishadi. Chunki ular o‘z ota-onalari misolida, bir-birlariga nisbatan salbiy munosabatda bo‘luvchi, bir-birlari bilan nizolashib turuvchi er-xotinlarni ko‘rmaganlar. Mabodo bunday vaziyatlar va nizolar yuzaga kelib qolgudek bo‘lsa ham, ularning ota-onalari bu holatni farzand lariga sezdirmaslikka harakat qiladilar. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari orqali namunaviy ahil, baxtli oilalar haqida berib boriladigan ko‘rsatuvlarda ham aksariyat hollarda er-xotinlik munosabatlarini bir yoqlama, faqat yaxshi tomon dan ko‘rsatish an’analari mavjud. Bularning hammasi yoshlar da oilaviy hayot haqida bir yoqlama ijobiy tasavvurlarning shakllanishiga asos bo‘ladi.Shunday ertakmonand tasavvurlar, orzular og‘ushida oila qurgan yoshlar o‘zlarining oilaviy hayotlarida dastlabki muammolarga duch kelishlari bilanoq, ularning oilaviy hayotlari o‘zlari kutganlaridek bo‘lmayotganligi, turmush o‘rtog‘ini tanlashda “xato qilganligi”, ular oldingi (to‘y-dan oldingi) holatiga nisbatan ma’lum darajada (albatta) “salbiy” tomonga o‘zgarib qolganligi kabilarni “tushuna” boshlaydilar. Shuningdek, yosh oilada er-xotinlarning o‘zaro munosabatlari


(cc) BY

rivojlanishining o‘ziga xos qonuniyatla-ri, ayniqsa, yosh o‘zbek oilasida uning etnik, hududiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yosh kelin va kuyovning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishi jarayoni bilan bog‘liq qiyinchiliklar er-xotin munosabatlarida nizoli vaziyat-lar va nizolarni yuzaga keltirishi mumkin. Afsuski, bunday jarayonlar deyarli har bir oila uchun muqarrar bo‘lgan va aksariyat yoshlar oila qurish arafasida o‘z nikohlaridan kutmagan jarayonlardir.

Xo‘sh bu jarayonlar, ya’ni er-xotin nizolari kerakmi? Ular er-xotinning o‘zaro munosabatlariga qay darajada ta’sir etadi?

O‘tmish donishmandaridan biri haqli ravishda er-xotin nizolarini garmdoriga qiyoslagan ekan. Garmdori achchiq, lekin u me’yorda bo‘lsa ishtahani ochadi, me’yoridan ortib ketsa, og‘iz, lab, tilni kuydirishi, noxush hissiyotlarni yuzaga keltirishi mumkin. Nizoli vaziyatlar har qanday oilada u yoki bu darajada yuzaga keladi. Oila qanday bo‘lishidan qat’i nazar nizolardan mutlaqo xoli (himoyalangan, kafolatlangan) bo‘la olmaydi. Chunki oiladagi shaxslararo munosabatlar, odatda, nizosiz bo‘lmaydi. Bu nizolar ma’lum darajada er-xotin munosabat larini rivojlantiruvchi kata-lizator vazifasini o‘taydi. Lekin nizoning nizodan farqi bor. Ular kelib chiqishi, tashqi ifodalanishi, takrorlanib turish tezligi (soni) va oqibatlariga ko‘ra bir-birlaridan farqlanadi. Biron-bir maxsus mezon yo‘qki, shunga asosan nizolarning qaytalanishi, kuchi, darajasi va boshqa ma’lumotlari (ko‘rsatkichlari)ni aniq belgilab berish (olish) mumkin bo‘lsa. Bunda hamma narsa sub’ektning o‘ziga, uning shaxsiy, psixologik xususiyatlariga, yoshiga, jinsiga, uning qo‘yilishiga, nizoning qanday idrok qilinishi va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Ma’lumki, bir-birlariga aynan o‘xshash, mos ikki odamning bo‘lishi mumkin emas, chunki shaxs va uning individualligi takrorlanmasdir. Shunday ekan ikki va undan ortiq shaxsdan (individ)dan tashkil topgan oila ham ikki, uch karra takrorlan masdir. Bir oila uchun me’yorida bo‘lgan shaxslararo munosabatlar tizimi, ikkinchi bir oilaga mutlaqo mos kelmasligi yoki biron-bir oila uchun u qadar ahamiyatga ega bo‘lmagan nizo va uning sababi boshqa oila a’zolarining o‘zaro munosabatlarida jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin va hokazo.

*Er-xotin o‘rtasidagi nizolar*. Amalda er va xotin nizolashib, ajralishga ahd qilganda, ular o‘rtasida farzand bo‘lmasa, FHDYo idoralariga murojaat qiladilar va ularning nikohi bekor qilinadi. Agar o‘rtada farzand bo‘lsa, bu ishni sudlar hal qiladi, lekin aksariyat holatlarda o‘z-o‘zini boshqarish organi bo‘lmish mahalla va undagi yarashtirish komissiyasining a’zolari bo‘lmish faollar bunga aralashadilar, arzimagan sabab bilan ajrimgacha borayotgan yoshlarga jamoatchilik monelik ko‘rsatadi. Chunki milliy mentalitetda farzandni tirik yetim qilib qo‘yish katta gunoh hisoblanadi, shuning uchun azaldan urf bo‘lgan tamoyil borki, yosh oilaning keyingi taqdiriga kattalar aralashadi va oilaviy nizoning sabablari o‘rganilgach, bir qarorga kelinadi. Agar oilaviy nizo yoshlarning, birinchi navbatda, ayolning va farzandlarning salomatligi,


(cc) BY

tinchligi va bir-galikda yashashlariga jiddiy xavf solgan hollarda (xiyonat tufayli bir-birini kechirolmaslik, erning tinimsiz al-kogol iste'mol qilishi tufayli ayolni muntazam qiynashi, maishiy zo'ravonlik, oila byudjetiga erkak ulushining qo'shilmasligi kabi) jamoatchilik ayolning haq-huquqlarini himoya qiladi va mahallaning o'zi ayol, uning farzandlari taqdirini belgilash, ularni ijtimoiy himoya qilish maqsadida bu ishga aralashadi. Joylardagi xotin-qizlar faollari oxirgi yillarda aynan shu masalalarda o'z-o'zini boshqaruv organlarining odilona faolligini oshirishga alohida e'tibor berib kelmoqda.

Psixologik adabiyotlarda ajrimlarning tabiati, bu jarayonga oid qonuniyatlar ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan bo'lib, masalan, S.Kraxotvil ajrim jarayonining quyidagi bosqichlarini ajratadi:

• bosh ko'tarish bosqichi: xo'rlangan va norozi ayol o'z faolligini oshirib, ajrim sodir bo'lmasligining oldini olish uchun muayyan sa'y-harakatlarga kirishadi. Lekin barcha ishlarni xavotirlik va hayajon bilan amalga oshirgani sababli ko'p xatolarga yo'l qo'yadi va noma'qul ishlar ham qilib qo'yishi mumkin;

• tushkunlikka tushish bosqichi:ajralishni xohlamagan tomon vaziyatni boshqara olmaganligini tan olib, tushkunlik, depressiya holatiga tushadi va endi o'zini ham ayblay boshlaydi;

• bo'yinga olish bosqichi:ajralishni xohlamagan tomon endi mavjud holat bilan kelishib, bunday nikohning bo'lganidan bo'lmagani ma'qulligi fikriga keladi.

Albatta, shuni ta'kidlash joizki, ayrim hollarda ik-kala tomon ongli ravishda, o'zaro kelishib, bir-birlariga ta'na-dashnom bermaydilar va bunday ajrimlar yuqori-da ko'rsatilgan bosqichlarsiz sodir bo'ladi. Demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilayotgan davlatlarda ajrimlar masalasiga ham demokratik tarzda qaraladi, ya'ni ikki tomonning yoki birining manfaatiga mos kelishi inobatga olinib, ajrim sodir etiladi, lekin bunday holatlarda, ayniqsa, yosh bolasi bilan qolgan ona ijtimoiy-psixologik yordamga, jamiyat tomonidan ko'rsa-tiladigan madadga muhtoj bo'ladi.

Mahalladagi yarashtirish komissiyalarining a'zolari bilan o'tkazilgan suhbatlardan ma'lum bo'ldiki, ular aksariyat holatlarda aynan ayollarning manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi, lekin ayolning aybi va uning oilaviy yumushlarga tayyor emasligi, eri va qarindoshlar bilan to'g'ri munosabatlarni o'rnatishga no'noqligi tufayli oila ajrim arafasida bo'lgan sharoitda mahalla maslahatchilari kelin bilan ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar.Oilaga yangi tush-gan kelinlarning ko'pchiligi yuzaga ke ladigan ba'zi qiyinchiliklarni osonlik bilan yengib, kelinlik vazifalarini ko'ngildagiday eplab ketadilar, qaynonalarini ro'zg'or tashvishlaridan xalos qiladilar, tezda ularning mehriga sazovor bo'ladilar. Qaynonalar ham bunday kelinni "qizim" deb bag'rilariga oladilar, bilmaganini o'rgatadilar, qiynalganida yordam beradilar, hayotiy yo'l-yo'riq ko'rsatadilar. Ularga uy-ro'zg'or ishlarida va bolalar tarbiyasida yaqin ko'makdoshga


(cc) BY

aylanadilar. Biroq hayotda qaynona-kelin orasida turli toʻqnashuvlar ham sodir boʻlib turadi. Gap qaynona-kelin oʻrtasida borar ekan, shuni aytib oʻtishimiz lozimki, bu masala azal-azaldan odamlarning, insoniyatning atoqli namoyandalarining diqqat-e'tiborida boʻlib kelgan muammolardan biridir. Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan sharq mutafakkirlaridan biri Ahmad Donish oʻzining "Navodir ul-vaqoe" ( Nodir voqealar) nomli kitobida qaynona-kelin nizolari haqida yozar ekan shunday deydi: "Qaynona-kelin nizolari bundan oldingi oilalarda ham boʻlgan, hozir ham bor va bundan keyin ham boʻladi. Ular doimo urishaveradilar. Ular nima uchun urishadilar? Chunki ular nima uchun urishayotganlikla-rini oʻzlari ham bilmaydilar. Shuning uchun urishadilar".

Demak, bu oʻrinda qaynona-kelin nizolari, sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish alohida ahamiyatga molik masala ekanligi koʻrinib turibdi.

Bunday kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablardan ayrimlarini koʻrib chiqamiz.

1. Ba'zi qizlarda nikohgacha oilaviy hayotga, qaynonaga, qaynona-kelin munosabatlariga nisbatan salbiy tasavvur shakllangan boʻladi. Ayniqsa, yoshlar qaynonani oldindan faqat sal biy qiyofa sifatida tasavvur qiladilar. Keyin esa oila qurib, tasavvuridagi emas, balki hayotdagi qaynona bilan yashay bosh-laydilar. Oqibatda ular oʻz tasavvuridagi qaynonaga xos boʻlgan kamchilik va illatlarni hayotdagi qaynonadan axtara boshlaydilar. Boriniku topishlari aniq, hatto yoʻgʻini ham topishga harakat qiladilar. Chunki tasavvurlari ular-ni aldaganini tan olishni istamaydilar. Hayotda kamchiliksiz odam boʻlgan emas, boʻlmaydi ham. Ideal qaynona, ideal kelin ham boʻlishi mumkin emas. Kelinlar oʻzlari tushgan yangi oila a'zolariga ilk taassurot asosida baho berishga oshiqmasliklari lozim. Aks holda, pashshadan fil yasash ham hech gap emas. Kelinlar ogʻir-bosiq, sabr-toqatli boʻlishlari, iloji boricha oʻzlari tushgan xonadon a'zolarining yaxshi tomonlarini koʻrishga intilishlari, eri shu xonadon a'zosi ekanligini unutmasligi lozim. Ana shunda bu oila tinch-totuv boʻladi. Zotan, kelin bu xonadonga besh kunlik mehmon emas, balki bir umrlik a'zo boʻlib kelganligini unutmasligi kerak.

2. Qaynona-kelinning dunyoqarashlari va uy-roʻzgʻor tutishlari orasida kelishmovchilik paydo boʻladi va keskinlashadi.Ikki avlodning dunyoqarashi, hayotiy tamoyillari oʻrtasida tafovut boʻlishi tabiiy holdir. Ammo aksariyat hollarda qaynona-kelinlar koʻp jihatdan bir-birining aksi boʻladilar. Ayrim hollarda esa qaynona-kelin andishani yigʻishtirib qoʻyib, har birlari oʻz gaplarini oʻtkazishga harakat qiladilar. Bunday kelishmovchiliklarning oldini olish uchun kattalar yoshlarni kiyinishi, soch turmaklashi, yoqtirgan kuy va ashulalarini tinglashi va shu kabi boshqa masalalarda ularni oʻz holiga qoʻyishlari lozim. Yoshlar ham oʻz navbatida iloji boricha ota-onalarini tushunishga intilishlari, ularni gʻashiga tegadigan nooʻrin qiliq va odatlardan, qaynonaga xush kelmaydigan salbiy "hoy-havaslardan" oʻzlarini tiyishlari kerak.


(cc) BY

3. Ba’zi kelinlar kelinlik va onalik vazifalarini bajarishga tayyor bo‘lmaydilar. Shunday kelinlar bo‘ladiki, ular na ovqat pishirishni, na kir yuvishni, na kattalar bilan muomala qilishni biladilar. Kelin kelinligining birinchi kunidanoq hamma narsani kerakligicha bilishi va katta tajribaga ega bo‘lgan qaynonasi darajasida turishi juda qiyin. U darajada bilmasa ham mayli-ya, lekin bilishni istamasa qiyin. Shuning uchun nikohgacha onalar qizlariga osh-ovqat pishirishni, meva-sabzavotlardan qishga sharbat, tuzlama, murabbolar tayyorlashni, uy-joyni saranjon-sarishta tutishni, did bilan mehmon kutishni, tejamkorlikni, oila byudjetini iqtisod qilishni, uy anjomlari, jihozlaridan asrab-avaylab foydalanishni va shu kabi uy-ro‘zg‘or ishlarini o‘rgatishga alohida e’tibor berishlari zarur. Chunki el orasida “qiz birovning xasmi, boshqa oilaga tushishi bor” degan hikmat bor. Shunga qarab qizlarni puxta tayyorlash kerak.

4. Qaynonalar ham kelinlardan hadeb kamchilik va qusur axtarmasdan, uni o‘z farzandiday ko‘rib, bilmaganini sabr-toqat bilan o‘rgatib borishi lozim. Kamchiliklarini yuziga solavermasdan, yaxshi tomonlarini gapirib turishlari kerak. Yaxshi so‘z ham, yomon so‘z ham bir og‘izdan chiqadi. Qaynonalar kelinlarida hosil qilingan ko‘nikma va mala-kalarning o‘z o‘g‘li uchun va kelajakda o‘z nabiralari uchun xizmat qilishini esda tutishlari kerak.

5. Ayrim hollarda qaynona-kelin bolalar tarbiyasi masa-lasida kelisha olmay qoladilar. Ayrim oilalarda bolalar yo bobo-buvilar yoki ota-onalar tomonidan me’yoridan ortiqcha erkalatib yuboriladi. Natijada, ota-onalar bilan bobo-buvilar o‘rtasida “bolaga kim tarbiya berishi kerak” degan masalada kelishmovchilik kelib chiqadi. Aslida ular ham, bular ham bolalarni kelajakda yaxshi kishilar bo‘lib yetishishini istaydilar, tanlagan yo‘llari esa turlicha, biroq ular bir bitimga kelib olishmasa bola tarbiyasining holiga voy deyavering. Buning uchun ular boladan xoli joyda bir murosaga, yakdil qarorga kelib olishlari lozim. Ana shunda bobo-buvilar ham, ota-onalar ham ahillik bilan bola tarbiyasi borasida o‘zaro mos chora-tarbirlarni belgilab olishlari lozim. Bunda bola qanday muhit va shart-sharoitda, davrda o‘sayotga-nini, mijozi turini hisobga olish zarur.

6. Ba’zan katta xonadonda ovsinlar qaynona iltifotini qozonish yo‘lida bir-birilaridan rashk qilishlari aso-sida kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

Oilada ikki va undan ortiq kelin bo‘lsa, qaynona ular-ning hammasiga bir xilda qaray olmasligi tabiiy holdir. Kelinlardan birontasi qaynonaning didiga yaqinroq, ba’zisi uzoqroq bo‘ladi. Ayollar o‘ta ruhiy sezgirliklari tufayli buni tezda sezadilar. Natijada “o‘gay” kelin bilan qaynona o‘rtasida kelishmovchilik boshlanadi. Bunday holning oldini olish va ovsinlar orasiga sovuqchilik tushirmaslik uchun qaynona o‘z kelinlariga mumkin qadar bir xilda munosabatda bo‘lishi (ammo bu yerda har bir kelinning muomalasi, munosabatini, qaynonaga bo‘lgan mehrini hisobga olish inkor etilmaydi), rashk qilishlariga imkon yaratib qo‘yishdan ehtiyot bo‘lishlari kerak. Bu o‘rinda shaxsan kelinlardan ham aql-idrok, mulohazalilik va sabr-toqat talab qilinadi.


CC BY

7. Ba’zi hollarda qaynona kelinning yosh xususiyatlarini, qiziqishini, orzu-havaslarini, ishlashi yoki oʻqishini hisobga olmaydi.

Qaynonalar orasida umr boʻyi uy bekasi boʻlganlari ham bor. Ular ishlash bilan uy-roʻzgʻor ishlarini baravar olib borishni oʻz boshidan oʻtkazmagan. Ana shunday qaynonalar yoshligida oʻzlarini risoladagiday kelin boʻlganman deb bi-ladilar, qaynota-qaynonalarini qanday izzat qilganliklarini “ularning soyalariga koʻrpacha solganlarini” (rost-mi-yolgʻonmi, baribir) tez-tez eslashni yaxshi koʻradilar va kelinlarining ham “oʻzlariday” boʻlishini istaydilar. Ba’zan esa buni oʻgʻli orqali ochiqdan-ochiq talab qiladilar. Kelinlarining bunga imkoni bormi, yoʻqmi, oʻylab ham koʻrmaydilar. Bunday qaynonalar “ehtiyojini” qondirish imkoniyatiga ega boʻlmagan kelinlar ularning gʻazabiga uchraydilar. Kelini haqida boʻlar-boʻlmas gaplarni oʻgʻilla-rining qulogʻiga quyadilar. “Oʻgʻlimga aytib seni qoʻydirib yubormasam, yurgan ekanman”, deya doʻq-poʻpisa qiladilar. Ba’zi hollarda maqsadlariga erishadilar ham. Bunday qaynonalar oʻgʻillari, nabiralari baxtidan koʻra oʻz huzur-halovatlarini koʻproq oʻylaydilar. Buning oldini olish uchun oʻgʻildan gʻoyat uddaburonlik talab qilinadi.

8. Ayrim kelinlarning yangi oilaga moslashishi qiyin boʻladi, oqibatda, qaynona-kelin orasida kelishmovchilik-lar kelib chiqadi. Har bir oilaning oʻziga xos muhiti, qonun-qoidalari, an’analari, atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalarga beradigan baho mezonlari, hatto faqat shu xonadon a’zolari tushunadigan, shartli ravishda qabul qilingan soʻz, ibora-lari boʻladi. Yangi tushgan kelin oʻzi bilan oʻz tugʻilib oʻsgan uyining muhitini, odat-koʻnikmalarini ham olib keladi. Shuning uchun ham ayrim hollarda kelin bilan qaynonaning oilaviy muhitlari mos kelmay qoladi.

*Ota-ona va farzandlar oʻrtasidagi nizolar*. Bunday kelishmovchiliklar uchun zamin boʻlib quyidagilar xizmat qiladi.

1. Dunyoqarashlar orasidagi mavjud farqning hisobga olinmasligi.

2. Yoshlarning boʻsh vaqtini mustaqil tashkil etishi, doʻstlar tanlashdagi mustaqilligi, hissiyot sohasidagi mus taqilligi, modaga, bugungi kun talabiga mos kiyinishi, kasb tanlashdagi mustaqilligi, umr yoʻldoshi tanlashda mus taqillik uchun ota-onalari bilan ba’zan kurash olib borishning xush kelmasligi.

3. Ota-onalar ichkilikka ruju qoʻyishi yoki or-nomusni yigʻishtirib qoʻyib, buzuqchilik qilishi.

4. Ba’zi bolalarning mehnat qilishga oʻrgatilmaganligi va bu ning oqibatida yengil-elpi hayot kechirishga oʻrganib qolishi.

5. Ayrim yoshlarning farzandlik burchini unutib qoʻyishi.

6. Ota-onalarning psixologik-pedagogik bilim saviyalari yetarli darajada emasligi natijasida yuzaga keladi-gan kelishmovchiliklar va hokazo.

Ota-onalar va bolalar munosabatiga oid yuqoridagi kabi kamchiliklar natijasida oiladan halovat yoʻqoladi, oʻrtaga sovuqchilik tushadi. Farzandlik burchini bajarmaslik u yoqda tursin, hatto, ichib kelib, ota-onasiga qoʻl koʻtaradigan farzandlar, ota-onasini


(cc) BY

sharmanda qilayotgan axloqi buzuqlar borligiga nima deysiz? Ba’zi ota-onalar bolalarda 1, 3, 7, 13–14 yoshlarda muqarrar ravishda bo‘lib o‘tadigan inqiroz (krizis)larni bilmaydilar. Bu yosh bosqichlarida bola ruhiyatida yangi psixologik qo‘shilmalar yuzaga keladi. Bu esa ularning kattalar, jumladan, ota-onalar bilan bo‘lgan munosabatlarida ko‘zga tashlanadi. Buni sezmagan ba’zi ota-onalar “bolam nihoyatda qaysar, quloqsiz bo‘lib qoldi”, deb o‘ylaydilar va shikoyat qilishga tushadilar. Bunga qar-shi o‘zlaricha chora-tadbirlar belgilashlari natijasida ota-ona va bola bir-birlarini tushunolmay qoladilar. Shunday holatlarda bolaning ota-onadan bezish hollari kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy nizoning sabablarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarining ko‘pligi, oilaviy munosabatlar, er-xotinlar o‘rtasidagi nizolarning asl sabablarini to‘laligicha ifoda eta olmaydi. Shu bois ham biz tadqiqotimizning predmeti sifatida aynan o‘smirlik yoshidagi bolalarning ijtimoiy tasavvurlari mazmunida oilaviy nizolar haqidagi tasavvurlar qanday ijtimoiy psixologik omillar ta’si-rida shakllanishi masalasiga e’tiborni qaratdik.

## Foydlanilgan adabiyotlar

1. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 1003-1009

2. Elov Z.S. O‘smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta’siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447

3. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O‘quv-metodik qo‘llanma. 2021. Buxoro 1-164.

4. Elov, Z. S. (2016). Researches of the Reasons Conditions. Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive, 5(1), 49-53.

5. Elov, Z. S. (2022). O ‘smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta’siri. Science and Education, 3(3), 442-447.

6. EZ Sattarovich. CONDITIONS AND THE REASONS OF CASES OF THE SUICIDE AMONG THE STAFF OF LAW-ENFORCEMENT BODIES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 (3) 2017

7. Furqatovich, U. F., & Sattorovich, E. Z. (2022). SUICIDE–AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 349-354.

8. Jo’Rayeva, Z. A., & Maxmudova, Z. M. (2022). Sudga oid psixologik ekspertizani tashkil qilish va uni o’tkazishning o’ziga xosligi. Science and Education, 3(4), 1916-1922.


CC BY

9. Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi (o`quv qo`llanma) https://library.sammi.uz/Library/ 1 (1), Ўзбекистон

10. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. Авезов О.Р. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.

11. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.

12. Olimov L.Ya. Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, “Durdona”. 2019. – 460.

13. Olimov, L. (2020). ЛЯ психологической зашита: ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

14. Olimov, L. (2021). maqola СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ: СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7)..

15. Qizi, S. M. Z., & Sattorovich, E. Z. (2022). PRIORITIES OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 900-904.

16. UFF Elov Ziyoddullo Sattorovich. SUICIDE – AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL 1 (Volume 3 …

17. Yarashovich, O. L. (2020). O'smirlarning ba'zi dinamik xususiyatlari kontekstida kurashish xatti-harakatlarini o'rganish xususiyatlari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

18. ZM Maxmudova, AZJKYK Olimov, L Ya. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya.“Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021

19. қизи Расулова, М. Б., & Олимов, Л. Я. (2022). ЎСМИР ШАХСИ РИВОЖЛАНИШИДА АҲЛОҚИЙ НОРМАЛАР МУАММОСИНИНГ ҲОЗИРГИ ЗАМОН ПСИХОЛОГИЯСИДА ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(3), 204-207.

20. Махмудова З.М., Олимов, Л. Я. (2021). ЭКСТРЕМАЛ ВАЗИЯТЛАРДА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР ВА СТРАТЕГИЯЛАР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).


(cc) BY

21. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.

22. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

23. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.

24. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. XXI аср психологияси 1 (1), Ўзбекистон

25. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.

26. Олимов Л.Я., Эшов Э.С. Авезов О.Р. Девиант хулқ-атвор психологияси. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 420.

27. Олимов, Л. Я. (2020). Olimov ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА АХБОРОТ-ПСИХОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

28. Элов, З. С. (2014). Теоретические основы суицидального поведения. Psixologiya, 4, 16.

29. Элов, З. С. (2015). Суицидал уринишларни содир этишга сабаб бўлувчи асосий омиллар (Ички ишлар органлари ходимлари мисолида). Psixologiya, 2, 18.

30. Элов, З. С. (2016). Суицидал хулқ шаклланиши ижтимоий-психологик муаммо сифатида (ички ишлар идоралари ходимлари мисолида). Psixologiya, 3, 23.

31. Элов, З. С. (2017). Профилактика самоубийств сотрудников овд. Вестник интергативной психологии, 208-212.

32. Элов, З. С. (2021). Замонавий жамиятда суицид (ўз жонига қасд қилиш) муаммолари. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2, 26-28.

33. Maxmudova, Z. M., & Olimov, L. Y. (2021). Social psychological characteristics of psychological defenses manifested in adolescents in extreme situations. Вестник интегративной психологии журнал для психологов, (22), 233-237.

34. Maxmudova, Z. M., & Olimov, L. Y. Osmirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya.“Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021.


CC BY

35. Олимов, Л. Я., & Махмудова, З. М. (2021). Психодиагностикани автоматлаштириш ва фанни ўқитишда инновацион педагогик ва ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хослиги. Масофавий таълимни ташкил этишнинг педагогик-психологик жиҳатлари мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материали. Тошкент, 489-493.